



**O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti**

100187, Toshkent sh. Buxuk ipak yo'li ko'chasi, 243
2025-yil 09 " 12 " № 40/ 2229

**Islom taraqqiyot banki
(IsDB)ning O'zbekistondagi
vakolatxonasi**

Ushbu noma orqali, avvalo, O'zbekistonda olib borayotgan samarali faoliyatingiz va mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga qo'shayotgan hissangiz uchun samimiy minnatdorchilik izhor etamiz.

Mamnuniyat bilan qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish kabi ko'plab yo'nalishlarda samarali ko'mak berib kelmoqdasiz.

Amalga oshirayotgan ishlaringizni yuksak ehtirom ila e'tirof etamiz.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilganligiga endigina 1 yildan oshdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Institut aholining farovonligi va osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatlarning asl omillarini ilmiy diagnostika asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, g'oyadan-amaliyotgacha tamoyili asosida muammolarga ilmiy yechim berish orqali yurtimiz kriminogen vaziyatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Islom taraqqiyot banki (IsDB)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlik o'rnatish biz olib borayotgan ishlarimizga katta impuls beradi hamda yuqori natijalarga erishishimizga xizmat qiladi.

Shu sababli, Institut faoliyatining yanada samarali bo'lishi hamda dolzarb muammolarga tezkor yechim topish maqsadida ilova ko'rsatilgan masalalar bo'yicha hamkorlik qilishni so'raymiz.

Fursatdan foydalanib, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Ilova: " " varaqda.

Hurmat bilan,

**Institut boshlig'i,
yuridik fanlar falsafa doktori
(PhD)**

B.E. Berdialiyev

Islom taraqqiyot banki (Islamic Development Bank – IsDB)
O'zbekiston vakolatxonasiga hamkorlik bo'yicha
TAKLIFLAR:

T/r	Loyiha nomi yoki bajariladigan ish	Kerakli mablag'	AQSH dollari hisobida
1.	“Bexatar yo'l” loyihasi (<i>loyiha doirasida barcha haydovchilar mustaqil foydalanadigan platforma hamda xalqaro tajribalarga asoslangan tirbandlikni kamaytiradigan hamda yo'l-transport hodisalarida tezkor yechim beradigan tizim ishlab chiqiladi</i>). Platforma yo'llarda qoidalarga amal qilishga chorlovchi yo'riqnomalar berib boriladi, o'zini qiziqtirgan savollariga tezkor javob oladi. Yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda haydovchilar voqeada kim aybdorligi haqida ishonchli va tezkor xulosa olish imkoniga ega bo'ladi (<i>platforma hodisada kim aybdor bo'lishi mumkinligi haqida xulosa beradi</i>). Shuningdek, platforma orqali onlayn ariza berish, voqea chizmasi, fotosuratlar va avtomatik o'lchovlar yuborish imkoniyatlari bo'ladi. Bu jarayon fuqarolar o'zaro kelishuvini tezlashtiradi va yo'l tirbandligini oldini oladi. Tizim ilg'or tajribalar tahliliga asoslanadi unda tirbandlikni kamaytirish, yo'llardagi bezorilikni oldini olish, shuningdek sug'urta kompaniyalar orqali yo'l-transport hodisasida yetkazilgan zararni qoplashni soddalashtirish yo'llari ishlab chiqiladi.	1 mlrd. 250 mln.	104 000 \$
2.	“Eslatma soat” qurilmasi (<i>qo'lga taqiladigan ushbu qurilma barcha fuqarolarga erkin sotib olishiga taqdim etiladi, u shaxsning asabiy holatga tushganida ogohlantiradi, harakatsiz o'tirganda turli eslatmalar beradi</i>). U shaxsning jahli chiqqanida, janjallashayotgan vaqtida o'zini qo'lga olishi haqida ogohlantiradi, shuningdek bilim olish va o'zini rivojlantirishga qiziqishini oshirishga, to'g'ri tarbiya topishiga ko'mak beradi. Oilaviy zo'ravonlik, suitsid kabi noxush holatlarni oldini oladi. Fuqarolarda ishchanlik ruhini oshiradi, tushkun kayfiyatdan xalos etadi.	950 mln.	80 000 \$
3.	Hududlarga chiqib fuqarolar bilan ularni qiynayotgan muammolar va turli noxushliklar omillari haqida suhbat o'tkazish uchun 18 nafar yo'lovchiga mo'ljallangan kichik avtobus va uni suhbat o'tkazishga moslab jihozlash.	400 mln.	31 500 \$

4.	2026-yil davomida Arab davlatlarining kriminologiya sohasidagi ijobiy tajribalarni o'rganish uchun Kriminologiya tadqiqot institutini 9 nafar xodimlarni xizmat safariga yuborish.	230 mln.	18 000 \$
5.	Institut laboratoriyasi faoliyatini moddiy-texnik qo'llab-quvvatlash. Jumladan: - faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash; - fuqarolar bilan jinoyatning sabab va shart-sharoitlari haqida suhbat o'tkazish va mutaxassislarga yangi holatlar bo'yicha yo'nalish berish "Kriminologik omillar xonasi" ni tashkil etish hamda jihozlash; - laboratoriya xodimlari yengil avtomobil .	650 mln.	51 000 \$
6.	Institut xodimlari uchun sport zali hamda xodimlar va mehmonlar ovqatlanishlari uchun oshxona qurish	10 mlrd.	833 000 \$
7.	Qurilgan sport zalni jihozlash	1 mlrd.	83 000 \$
8.	Qurilgan oshxonani jihozlash	500 mln.	41 600 \$
9.	Institutning ikki binosini tutashtirib turuvchi foye (yopiq koridor) qurish	1 mlrd.	83 000 \$
Jami:		15 mlrd, 980 mln.	1 mln, 331 ming.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son Farmoniga asosan tashkil etilgan.

*Institut kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatdan ta'minlashga ixtisoslashgan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga hisobdor, yuridik shaxs maqomiga ega, mustaqil, **respublika ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.***

Institut sayti: kti.iiv.uz

Institutning maqsadi:

*jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo'yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda jinoyatlarning omillarini o'z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt **oldini olish tizimi natijadorligini oshirish;***

*jinoyatchilik, shu jumladan latent jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, **salbiy tendensiyalarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;***

*jinoyatning asl omillarini kompleks ilmiy diagnostik asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari tizimini belgilash, **kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etib borish;***

*yuridik, sotsiologik, psixologik, pedagogik, tibbiy, atrof-muhit, raqamli kriminologiya kabi zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish, **ta'lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o'qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;***

*zarur tashkiliy-huquqiy va tuzilmaviy asoslarni shakllantirgan holda jinoyatchilik omillari va uning salbiy tendensiyalari bartaraf etilganligini **ilmiy baholash** amaliyotini yo'lga qo'yish;*

*rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manzilli hamkorlikni faollashtirish, qo'shma kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish hamda **O'zbekiston kriminologiyasi jahon reytinglarida munosib o'rin egallashini ta'minlash hisoblanadi.***

Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

*respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy **omillarini kompleks ilmiy diagnostik asosida aniqlash;***

*jahon kriminologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligining **ilg'or tajribalarini doimiy o'rganish** hamda uning natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.*

*Institut tomonidan jahon kriminologiyasining ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida **25 ta davlatning kriminologiya sohasida faoliyat yuritadigan idoralari bilan hamkorlik o'rnatish.***

ABOUT THE CRIMINOLOGY RESEARCH INSTITUTE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

The Criminology Research Institute of the Republic of Uzbekistan was created on the basis of President Decree of the Republic of Uzbekistan No. 10, dated January 15, 2024.

The Institute is an independent, republican scientific-research institution that specializes in scientific and expert provision of criminological activities, is part of the organizational structure of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, is accountable to the Prime Minister of the Republic of Uzbekistan, and has the status of a legal entity.

The institute is headed by the head, who is appointed and dismissed by the Cabinet of Ministers.

I. The purpose of the institute:

to raise the activity of scientific research in the field of ensuring public safety and combating crime to a new level in terms of quality and efficiency, by increasing the effectiveness of the system for their early prevention through the timely elimination of crime factors;

conduct systematic analysis and forecasting of criminality, including latent criminality trends; identify negative trends and develop targeted measures to eliminate them;

determine the root causes of crime based on complex scientific diagnosis and establish a system of measures to eliminate them; introduce artificial intelligence and modern digital technologies into criminological activities;

develop modern branches of criminology, such as legal, sociological, psychological, pedagogical, medical, environmental, and digital criminology; form an intolerant attitude towards crime among young people through systematic teaching of criminology in educational institutions;

establish the practice of scientific assessment for eliminating crime factors and their negative trends form the necessary organizational, legal, and structural foundations;

activate targeted cooperation with leading scientific research institutions of developed foreign countries; establish the implementation of joint criminological research and ensure that Uzbekistan criminology occupies a worthy place in the world rankings.

II. The main areas of the institute's activity are:

carrying out in-depth research on the criminogenic situation in the republic, systematically analyzing and forecasting crime trends, and determining its social, economic, psychological, spiritual-educational, legal, medical, and organizational factors based on complex scientific diagnosis;

continuously studying best practices of world criminology and the legislation of foreign countries on criminological activities, and developing proposals and recommendations for implementing their results in the Republic of Uzbekistan;

Establishing cooperation with criminology departments of 25 countries in order to study best practices of world criminology by the institute.

Institution website: kti.iiv.uz